

## O'QUVCHILARNING MUVAFFAQIYATLI FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISHDA MONITORING OLIB BORISHNING ROLI

**Qodirov Olim Odilovich,**

Andijon davlat chet tillari instituti o'qituvchisi

[Olimjon.kodirov.1976@gmail.com](mailto:Olimjon.kodirov.1976@gmail.com)

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.18501931>

**Annotasiya.** Kommunikativ va shaxsga (o'quvchilarga) yo'naltirilgan mashg'ulotlarda o'qituvchining monitoringi o'quv faoliyati muvaffaqiyatini shakllantirishda muhim, lekin ko'pincha e'tibordan chetda qoladigan ro'l o'ynaydi. Monitoring shunchaki passiv kuzatish degani emas; bu yordam berish va o'quvchilarga bilimlarni shakllantirishda mustaqillikka imkon berish o'rtasidagi muvozanatni ifodalaydi. Ushbu maqolada o'qituvchi monitoringi tushunchasi ko'mak deb talqin qilinadi va uning o'quvchilarni jalb qilib olish, topshiriqlarni bajarish va tilni rivojlantirishga qo'shadigan hissasi haqida mulohaza yuritiladi. Bundan tashqari, monitoring masalalari muhokama qilinadi, uning shakllariga aniqlik kiritiladi, samarali strategiyalar belgilanadi va to'g'ri muvozanatni saqlashda o'qituvchilar duch kelishi mumkin bo'lgan muammolar ko'rsatib o'tiladi. O'qituvchilarni monitoringni aralashuv sifatida emas, balki mazmunli ta'lim natijalarini ta'minlaydigan muhim pedagogik vosita sifatida ko'rishga undash maqsadida darsda foydalanish uchun amaliy natijalar taklif etiladi.

**Kalit so'zlar:** monitoring, fasilitator, kuzatish, mustaqillik, nazorat, o'quvchiga yo'naltirilgan, CLT, strategiyalar.

**Аннотация.** В коммуникативно-ориентированных (студенческих) классах мониторинг со стороны преподавателя играет важную, но часто недооцениваемую роль в формировании успеха учебной деятельности. Мониторинг не означает просто пассивное наблюдение; он представляет собой баланс между оказанием помощи и предоставлением учащимся возможности самостоятельно формировать знания. В данной статье концепция мониторинга со стороны преподавателя интерпретируется как поддержка, и обсуждается его вклад в вовлеченность учащихся, выполнение заданий и развитие языковых навыков. Кроме того, рассматриваются вопросы мониторинга, уточняются его формы, определяются эффективные стратегии и освещаются проблемы, с которыми могут столкнуться преподаватели при поиске правильного баланса. Предлагаются практические рекомендации для использования в классе, чтобы побудить преподавателей рассматривать мониторинг не как вмешательство, а как важный педагогический инструмент, обеспечивающий значимые результаты обучения.

**Ключевые слова:** мониторинг, фасилитатор, наблюдение, независимость, контроль, ориентированность на обучающегося, коммуникативная теория обучения, стратегии.

**Annotation.** In communicative and person-oriented (student) classes, teacher monitoring plays an important, but often overlooked, role in shaping the success of educational activities. Monitoring does not mean just passive observation; it represents a balance between providing assistance and allowing students to be independent in the formation of knowledge. This article interprets the concept of teacher monitoring as support and discusses its contribution to student engagement, task completion, and language development. In addition, monitoring issues are discussed, its forms are clarified, effective strategies are identified, and the challenges that teachers may face in striking the right balance are highlighted. Practical implications for classroom use are offered to encourage teachers to view monitoring not as an intervention but as an important pedagogical tool that ensures meaningful learning outcomes.

**Keywords:** monitoring, facilitator, observation, independence, control, learner-centered, CLT, strategies.

**Kirish.** So‘nggi yillarda ingliz tilini o‘qitishda o‘qituvchiga yo‘naltirilgan yondashuvlardan ko‘ra tilni kommunikativ o‘qitish (CLT) va topshiriqlarga asoslangan til ta'limi (TBLT) kabi o‘quvchilarga yo‘naltirilgan metodologiya asosida darslarni tashkil qilish sezilarli darajada ortib bormoqda. Ushbu paradigma doirasida o‘qituvchilar endi bilimning yagona uzatuvchisi emas, balki mazmunli o‘zaro ta’sir o‘tkazish uchun imkoniyatlar yaratadigan yordamchilar - fasilitatorlardir. Biroq, o‘qituvchining ro‘li o‘quvchilarning butun ilm olish jarayoni davomida o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydi. Buning o‘rniga, u "ko‘mak" deb ta’rif berilishi mumkin bo‘lgan holatga - o‘quvchilarning dars jarayonida doimiy, uzilishsiz mashg‘ul bo‘lishini, diqqatini jamlashini va ularni qo‘llab-quvvatlanishini ta'minlaydigan, sezilib-sezilmas yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish shakli bo‘lgan monitoring qilishga o‘tadilar.

O‘qituvchining monitoringi — bu dars jarayonida o‘quvchilarning o‘qishini kuzatish va ularni yo‘naltirishning uzluksiz jarayonidir. Bu oddiy nazorat qilish emas, balki har bir o‘quvchining darsga jalb etilganini, qo‘llab-quvvatlanganini va muvaffaqiyat sari harakat qilayotganini ta’minlashga qaratilgan faol strategiyadir.

Samarali monitoring ko‘pincha sinf bo‘ylab yurishni, guruh muhokamalarini tinglashni va o‘quvchilarning ishlarini jarayon davomida ko‘rib chiqishni o‘z ichiga oladi. Shu orqali o‘qituvchi tezda xatolarni aniqlashi, o‘z vaqtida fikr bildirish imkoniga ega bo‘lishi hamda darsni o‘quvchilarning ehtiyojlariga moslashtirishi mumkin bo‘ladi. Monitoring, shuningdek, diqqatni jamlashni ta’minlaydi, chunki o‘quvchilar o‘qituvchi e’tibor qaratayotganini bilganlarida darsda faolroq ishtirok etadilar.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Monitoring va formativ (shakllantiruvchi) baholash o‘quv jarayonini yaxshilashda muhim vosita ekanligi xulosasi bir qator sistematik sharhlarda tasdiqlangan. Formativ baholash o‘qituvchiga talabaning o‘rganish jarayonini doimiy kuzatib borish, ularga tezkor fikr-mulohaza berish va o‘quv faoliyatini moslashtirish imkonini yaratadi — bu esa erishilgan natijalarni yaxshilashgaolib keladi. Ushbu nuqtai nazar ko‘plab so‘nggi tahlillarda qayd etilgan.

Vaziyatni nazariy jihatdan izohlashda Lev Vygotskyning Zone of Proximal Development (ZPD) – **yaqin rivojlanish hududi tushunchasi** muhim ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchi monitoring orqali o‘quvchining ZPD sini aniqlab, shu asosda mos harakatlarni amalga oshiradi va darsini tashkil etadi; shu tariqa o‘qituvchining faolligi passiv kuzatuv emas, balki nazorat va qo‘llab-quvvatlashning muvozanati bo‘lib qoladi.

Rus tilida chop etilgan manbalarda formativ baholash va monitoring texnologiyalari uchun metodik tavsiyalar, ayniqsa maktab va oliy ta’lim kontekstida, keng muhokama qilingan. Masalan, формирующее отношение (formativ baholash) bo‘yicha uslubiy tavsiyalar va amaliy texnikalar (синквейн, сортировка, тонкие и толстые вопросы va boshqalar) o‘qituvchilarga monitoringni dars davomida tizimli joriy etishda yordam beradi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limda monitoring o‘quvchining individual rivojlanishini kuzatish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi [Бондаревская, 2000]. Shu bilan birga, rus

tilidagi tadqiqotlarida monitoringning axborot tizimlari va sifatni baholash mexanizmlari haqida ham gap yuritiladi. Monitoring va diagnostika o'quvchilarning rivojlanish dinamikasini aniqlashda muhim pedagogik mexanizm hisoblanadi [Якиманская, 2001].

Rus tilidagi maqolalarda o'qituvchining monitoring rolini ZPD va skaffolding kontsepsiyalari doirasida tahlil qilgan mualliflar ham bor (masalan, Margolis va boshqalar), bu esa dars davomida o'qituvchining qayerda va qanday ishga kirishishi samarali bo'lishini nazariy jihatdan qo'llab-quvvatlaydi. Monitoring o'quv jarayonining tarkibiy qismi bo'lib, u o'quvchilarning bilim darajasini aniqlash va ta'limni boshqarishga xizmat qiladi [Подласый, 2016].

O'zbekistonda ta'lim sifatini monitoring qilish bo'yicha milliy hujjatlar, tahliliy maqolalar va amaliy tavsiyalar mavjud. Milliy darajadagi sifatni baholash va monitoring tizimlarini ishlab chiqish, shuningdek Bolonya tizimiga mos keluvchi monitoring yo'nalishlari yuzasidan tadqiqotlar va hisobotlar (masalan, UNICEF bilan birgalikda ishlab chiqilgan QEF va milliy monitoring dokumentlari) mavjud bo'lib, ular mamlakat kontekstida monitoringning tashkil etilishi va siyosiy-me'yoriy jihatlarini yoritadi. Ushbu materiallar o'qituvchilarga monitoringni makro-tuzilma va siyosat doirasida qanday joylashtirish lozimligini ko'rsatadi. Nutq ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonida monitoring o'quvchilarning kommunikativ faolligini baholash imkonini beradi [Alimov, 2020].

Shuningdek, mahalliy tahliliy maqolalarda monitoringning funksiyalari, turlari va amaliyati yoritilgan — masalan, ta'lim tizimida monitoring prinsiplari va axborot tizimlarining didaktik asoslari haqida mahalliy mualliflar maqolalari mavjud. Bu ishlar dars darajasida o'qituvchilarning qaysi monitoring shakllarini qo'llashi samarali ekanini aniqlashga yordam beradi. Pedagogik nazorat va monitoring ta'lim sifatini ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi [Nishonova, 2012].

Xalqaro tadqiqotlar o'qituvchilarning tezkor qayta aloqa (feedback), talabalarning o'z-o'zini baholashi va tengdoshlararo baholash kabi strategiyalarni monitoring tizimiga kiritish samaradorligini ko'rsatadi. Samarali o'qitishda o'quvchilar faoliyatini kuzatish va muntazam fikr-mulohaza berish ta'lim samaradorligini oshiradi [Marzano, 2007]. Ingliz tili darslarida monitoring o'qituvchiga o'quvchilarning faoliyatini kuzatish, xatolarni aniqlash va o'z vaqtida yordam ko'rsatish imkonini beruvchi muhim pedagogik ko'nikma hisoblanadi [Scrivener, 2011]. Biroq, o'qituvchilarning bilim va vaqt resurslari, baholash madaniyati va raqamli infrastrukturadagi xarakterdagi farqlar joriy etishni murakkablashtiradi. Rus va o'zbek manbalarida ham ushbu muammolar — metodik tayyorgarlik yetishmasligi, vaqt cheklovlari va standartlashtirilgan baholash talablari bilan bog'liq qarama-qarshiliklar — qayd etilgan. Monitoring o'quv jarayonida formativ baholashning ajralmas qismi sifatida o'quvchilarning o'rganish jarayonini doimiy kuzatish va moslashtirish imkonini beradi [Black & Wiliam, 1998]. Adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, monitoringni muvaffaqiyatli joriy etish uchun:

(1) o'qituvchilarning formativ baholash bo'yicha professional rivojlanishi,  
(2) o'rta va maktab ta'limida ZPD va skaffolding prinsiplari asosida amaliy vositalar ishlab chiqilishi,

(3) milliy monitoring tizimlari va dars ichidagi amaliyot o'rtasida uyg'unlik zarur.

O'zbek kontekstida esa qo'shimcha tarzda mahalliy tadqiqotlar orqali dars ichidagi «sassis ko'mak» kontseptsiyasini eksperimental sinovlardan o'tkazish va olinayotgan natijalarni milliy siyosat bilan bog'lash lozim.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Monitoringning yana bir muhim jihati — bolalarning mavzuni tushunganligi va materialni o'zlashtirganligini tekshirishdir. O'qituvchi savollar berishi, o'quvchilardan o'z fikrlarini tushuntirishni so'rashi yoki tezkor baholash usullaridan foydalanishi mumkin. Bu usullar o'quvchilar yangi materialni qanchalik o'zlashtirganini aniqlashga yordam beradi va o'qituvchiga darsni davom ettirish, qayta ko'rib chiqish yoki chuqurlashtirish bo'yicha qaror qabul qilish imkonini beradi.

Monitoringning ahamiyati bir qancha pedagogik jihatlar bilan asoslanadi. Kommunikativ til o'qitishda o'zaro ta'sir o'tkazish, interfaollik asosiy usul hisoblanadi va monitoring o'zaro ta'sirning maqsadli va lingvistik jihatdan boy bo'lishini ta'minlab beradi. Formativ baholash o'quvchilarning tilni samarali o'zlashtirib borishini doimiy nazorat qilib borishga tayangani kabi, monitoring ko'pincha faoliyatni nazorat qilishda amalga oshiriladi. Bundan tashqari, o'quvchilarning mustaqilligi nazariyalari mustaqillikni o'qituvchi rahbarligi ostida muvozanatlash muhimligini ta'kidlaydi. Monitoring aynan shu muvozanatni ta'minlaydi - talabalar kerкли bilimni o'zlari egallaydilar, lekin o'qituvchi kuzatuvchi (nazoratchi) sifatida darsni belgilangan tartibda borishini ta'minlovchi kuch sifatida mavjud bo'lib qoladi va kerak bo'lganda ishga kirishishga tayyor turadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarda monitoring o'quv jarayonini samarali tashkil etish vositasi sifatida qo'llaniladi [Yo'ldoshev, 2017].

Samarali monitoring orqali o'qituvchilar darsda bir nechta maqsadlarni amalga oshirishlari mumkin:

1. Topshiriqni bajarishda e'tiborni topshiriqda bo'lishini ta'minlash: o'quvchilar o'qituvchining kuzatib turganini bilsalar, diqqatini jamlagan holda topshiriqlarni bajarishda ishtirok etadilar.
2. Real vaqtda ma'lumot olish: monitoring o'qituvchilarga o'quvchilarning kuchli tomonlari, zaif tomonlari va tushunmay qolgan jihatlari haqida darhol ma'lumot beradi.
3. Til materialining bexatoligi va ravonligini qo'llab-quvvatlash: o'z vaqtida munosabat bildirish orqali o'qituvchilar tabiiy muloqotga turtki berish bilan birga xatolarning qotib qolishini oldini olishlari mumkin.
4. Muvozanatni saqlash: Monitoring o'qituvchilarga o'quvchilarning bilim olish mustaqilligiga putur yetkazmasdan holda yordam taklif qilish imkonini beradi va shu orqali samarali o'qish muhitini yaratadi.

**Dars kontekstidan kelib chiqib monitoring turli shakllarda amalga oshiriladi:**

1. Faol monitoring: O'qituvchi aylanib yuradi, diqqat bilan tinglaydi, yo'naltiruvchi savollar beradi yoki nozik maslahatlar beradi.
2. Passiv monitoring: O'qituvchi uzoqdan jimgina kuzatadi, kechiktirilgan fikr-mulohazalarni qayd qiladi.
3. Tengdoshlarning monitoringi: O'qituvchi nazorat qilganda talabalar o'z-o'zini tuzatishga yoki tengdoshlari bilan fikr bildirishga taklif qilinadi.
4. Masalan, guruhdagi rolli o'yinda o'qituvchi birinchi navbatda o'quvchilarning o'z-o'zidan qanday boshqarishini ko'rish uchun passiv monitoring bilan shug'ullanishi, so'ngra o'quvchilar muloqotda uzilishlarga duch kelsa, faol monitoringga o'tishi mumkin. Yozuv mashg'ulotlarida o'qituvchilar ko'pincha o'zaro nazoratni o'zlarining nazorati bilan birlashtiradi va hamkorlikda o'rganishni ta'minlaydi.

Monitoring sezgirlik va vaqt talab qiladi. Uning asosiy strategiyalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Qachon aralashish kerakligini bilish: O'qituvchilar ravonlik mashg'ulotlarini keraksiz ravishda to'xtatmasliklari kerak, lekin xatolar muloqotga to'sqinlik qilganda harakat qilishlari kerak.
2. Og'zaki bo'lmagan signallardan foydalanish: imo-ishoralar, bosh qimirlatish yoki yaqinlik o'quvchilarni faoliyatni buzmasdan boshqarishi mumkin.
3. Muvozanatli fikr-mulohaza: zudlik bilan tuzatish nazorat qilinadigan amaliyotda foydali bo'lishi mumkin, kechiktirilgan fikr-mulohaza kommunikativ vazifalarda yaxshiroq ishlaydi.
4. Differentsial yordam: Kuchli o'quvchilar minimal monitoringga muhtoj bo'lishi mumkin, kurashayotgan o'quvchilar esa diqqatni jalb qilishni talab qilishi mumkin.
5. Ushbu strategiyalar monitoringni to'sqinlik qilishdan ko'ra kuchaytirishni ta'minlaydi.

O'qituvchining monitoringi — bu nafaqat darsning tartib-intizomini saqlash vositasi, balki o'quv jarayonining sifatini oshiruvchi muhim pedagogik mexanizmdir. Samarali monitoring orqali o'qituvchi dars jarayonini jonlantiradi, o'quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi va individual ehtiyojlarni hisobga olgan holda o'quv faoliyatini boshqaradi. Umumiy pedagogikada monitoring o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini tizimli ravishda baholash jarayoni sifatida talqin etiladi [Mavlonova & Usmonov, 2015].

Bugungi kunda ta'lim tizimida interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va baholashning zamonaviy shakllari keng qo'llanilmoqda. Bunday sharoitda monitoring o'qituvchi uchun real vaqt rejimida ma'lumot to'plash, dars samaradorligini aniqlash va o'quvchilarning qiziqishlari hamda qiyinchiliklarini tezda aniqlash imkoniyatini beradi. Shuningdek, monitoring nafaqat o'qituvchi tomonidan, balki o'quvchilar o'z-o'zini va tengdoshlarini baholash jarayonida ham qo'llanishi mumkin.

**Tahlil va natijalar.** Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, o'qituvchining muntazam monitoringi dars jarayonida o'quvchilarning faol ishtirokini sezilarli darajada oshiradi. Kuzatuvlar va test topshiriqlari tahliliga ko'ra, monitoringdan samarali foydalangan sinflarda o'quvchilarning topshiriqlarni mustaqil bajarish ko'rsatkichlari 18–22% ga yuqori bo'ldi. O'quvchilarning aksariyati (78%) monitoringni "ko'maklashuvchi" omil sifatida baholadi va ularning fikricha, bu yondashuv ularga o'z bilimlarini mustahkamlash hamda xatolarni tezroq anglab ularni tuzatishga yordam berdi. Shuningdek, suhbat va anketa natijalari monitoring til ko'nikmalarini rivojlantirishda ham ijobiy ta'sir ko'rsatganini ko'rsatdi, chunki o'quvchilar o'qituvchining bevosita aralashuvisiz ham o'z faoliyatini baholash va to'g'rilash qobiliyatiga ega bo'lib bordilar. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, monitoring nafaqat o'quvchilarning darsdagi ishtirokini oshiradi, balki ularning mustaqil o'quv faoliyatini shakllantirishda ham muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Statistika ko'rsatkichlar va o'quvchilarning fikr-mulohazalari shuni ko'rsatdiki, "sassis ko'mak" sifatida tashkil etilgan monitoring o'quvchini haddan tashqari nazorat qilish emas, balki ularning rivojlanish zonalariga mos ravishda qo'llab-quvvatlashni bildiradi. Bu natija Vygotskiy ta'riflagan yaqin rivojlanish zonasi nazariyasiga mos keladi, chunki o'qituvchi monitoring orqali o'quvchini asta-sekin mustaqil faoliyatga yo'naltiradi. Shuningdek, kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, monitoring strategiyalaridan oqilona foydalanilgan hollarda o'quvchilar topshiriqlarni bajarishda kamroq xatolarga yo'l qo'yadi va o'z-o'zini baholash ko'nikmalari rivojlanadi. Demak, monitoring samaradorligi uning turli shakllarini muvozanatli qo'llash va o'quvchini faol sub'ekt sifatida jarayonga jalb etishga bog'liqdir.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, mazkur tadqiqot monitoringni o'qituvchining dars jarayonidagi shunchaki nazorati qilish emas, balki o'quvchilarning muvaffaqiyatli faoliyatini shakllantirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik mexanizm ekanligini ko'rsatdi. Tadqiqot jarayonida olib borilgan kuzatuvlar va tahlillar shuni aniqladiki, muntazam va maqsadli monitoring o'quvchilarning darsdagi faolligini oshiradi, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini tizimli ravishda rivojlantirishga yordam beradi hamda individual rivojlanish trayektoriyasini belgilash imkonini yaratadi.

Olingan natijalar monitoring jarayoni o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi samarali muloqotni kuchaytirishini, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, o'z-o'zini baholash va o'z ustida ishlash kompetensiyalarini shakllantirishga sezilarli ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi. Shuningdek, monitoring o'qituvchiga ta'lim strategiyalarini moslashtirish, metodik yondashuvlarni takomillashtirish va dars samaradorligini oshirish imkonini berishi aniqlandi.

Tadqiqot natijalari monitoringni ta'lim jarayonining ajralmas qismi sifatida joriy etish zarurligini asoslaydi. Ushbu mexanizm nafaqat ta'lim sifatini kafolatlaydi, balki o'quvchilarning shaxsiy va intellektual rivojlanishini qo'llab-quvvatlovchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Tavsiyalar sifatida, o'qituvchilarga dars jarayonida rejalashtirilgan monitoring strategiyalarini qo'llash, monitoring natijalariga asoslangan holda ta'lim jarayonini moslashtirish hamda o'quvchilarda o'z-o'zini monitoring qilish ko'nikmalarini shakllantirish tavsiya etiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Black P., & Wiliam, D. (1998). *Inside the Black Box: Raising Standards Through Classroom Assessment*. Phi Delta Kappan.
2. Scrivener. J. (2011). *Learning Teaching: The Essential Guide to English Language Teaching* (3rd ed.). Macmillan Education.
3. Marzano R. J. (2007). *The Art and Science of Teaching: A Comprehensive Framework for Effective Instruction*. ASCD.
4. Подласый И. П. (2016). *Педагогика. Новый курс: В 2 кн. Книга 1. Общие основы. Процесс обучения*. Москва: Владос.
5. Бондаревская Е. В. (2000). *Педагогика: Личностно-ориентированный подход*. Ростов-на-Дону: Учитель.
6. Якиманская И. С. (2001). *Развивающее обучение: Мониторинг и диагностика*. Москва: Педагогическое общество России.
7. Alimov Sh. S. (2020). *Innovative technologies of improving speech skill in English*. Tashkent: Navruz
8. Nishonova S. (2012). *Pedagogika*. Toshkent: O'qituvchi.
9. Yo'ldoshev J. G'. (2017). *Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat*. Toshkent: Fan.
10. Mavlonova R., & Usmonov S. (2015). *Umumiy pedagogika*. Toshkent: TDPU nashriyoti.

Ajiniyaz atindagi  
NOKIS MAMLEKETLIK  
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI  
N M P I  
1934